

DRAMATIK MATNDAGI MURAKKAB ICHKI REMARKALAR VA ULARNING STRUKTUR TASNIFI

Gulhida Ikromova

FarDU katta o'qituvchisi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20287675>

Annotatsiya: Maqolada dramatik matn lingvistikasi doirasida remarkalarning lokal tasnifi va murakkab ichki remarkalarning struktur-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda remarkalar tashqi va ichki remarkalarga ajratilib, ichki remarkalarning personaj nutqi, ruhiy holati hamda emotsional kechinmalarini ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, murakkab ichki remarkalarning ko'makchili so'z, birikma, sodda gap va qo'shma gap shakllari misollar asosida tahlil qilinib, ularning dramatik matnning mazmuniy va sahnaviy ta'sirchanligini kuchaytiruvchi muhim sintaktik birlik ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: dramatik matn, remarka, ichki remarka, tashqi remarka, murakkab remarka, sintaktik birlik, personaj nutqi, emotsional holat, sahnaviy tasvir.

Zamonaviy dramatik matn tahlilida remarka hodisasi faqat sahnaviy ko'rsatma sifatida emas, balki nutq-harakat tizimining muhim lingvistik komponenti sifatida talqin qilinmoqda, shu bois remarkalarni ularning funksional yoki semantik xususiyatlarigina emas, balki replika va dialogga nisbatan joylashuvi, ya'ni lokal pozitsiyasi asosida tasniflash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayni shu nuqtayi nazardan remarkalarning lokal tasnifi dramatik matnning ichki strukturasi ochishga xizmat qiluvchi metodologik mezon sifatida e'tirof etiladi. Bu nuqtayi nazardan remarkalar ikki asosiy guruhga ajratiladi: tashqi va ichki remarkalar.

Muallif remarkalarining lokal tasnifi qator lingvistik olimlar ishlarida tadqiq etilgan. Xususan, A.V.Mankovskiy dramatik matndagi muallif remarkalarini alohida lingvistik hodisa sifatida ko'rib, ularni qahramon nutqidan tashqarida joylashuvchi tashqi remarkalar hamda replika tarkibiga singdirilgan ichki remarkalar tarzida farqlaydi. Tashqi remarkalar sahnadagi voqelikning umumiy manzarasini tavsiflashga xizmat qilib, unda voqealar kechadigan sahna dekoratsiyalari, personajlar almashinuvi ko'rsatiladi. Ichki remarkalar esa qahramon nutqiga bevosita bog'lanib, uning qanday ohangda, qanday ruhiy holatda va qanday harakatlar bilan aytilishini aniqlashtiradi hamda nutqning ijroiyl shaklini modellashtirishga xizmat qiladi. [1, 45-52] Mazkur tasnif A.P.Sachi tadqiqotlarida yanada chuqur o'rganilgan bo'lib, olim remarkani mustaqil sahna ko'rsatmasi emas, balki nutqiy birlik sifatida izohlaydi. Sachi fikriga ko'ra, personaj replikasi ichida joylashadigan ichki remarkalar personaj nutqining mazmunini emas, balki uning qanday ijro etilishini belgilab, dramatik asar mazmunini bir butunlikda idrok etilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. [2, 77]

Ingliz tilshunosi V.Pellatt remarkalarni dramatik matnning ichki tarkibiy komponenti, ya'ni matn strukturasi bevosita mansub birlik sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchiga ko'ra, ichki remarkalar intonatsiya, harakat va nutq ohangini ifodalovchi belgilarni kodlab, personaj nutqining emotsional hamda psixologik xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi, tashqi remarkalar esa sahnadagi voqelikning umumiy manzarasini tavsiflab, dramatik voqelikning yagona sahnaviy tasvirini hosil qiladi. [3, 34-48]

1. Murakkab ichki remarkalar – bu tarkiban kengaygan, bir nechta grammatik yoki sintaktik birliklardan tashkil topgan remarkalardir. Bunday remarkalar birgina leksik birlik bilan cheklanmay, ko‘makchili birikmalar, so‘z birikmalari, sodda gaplar yoki qo‘shma gaplar shaklida qurilib, personaj ichki holatining sabab, tarz, maqsad kabi semantik munosabatlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois murakkab ichki remarkalar dramatik matnda qahramonning ichki dunyosini batafsilroq va chuqurroq yoritishga xizmat qilib, nutqning emotsional fonini yanada boyitadi hamda sahnaviy talqinni aniqroq belgilashga yordam beradi. Murakkab ichki remarkalar tuzilishiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi:

a) ko‘makchili so‘z bilan ifodalangan murakkab ichki remarkalar – dramatik matnda personaj replikasi tarkibida joylashib, mustaqil so‘z turkumi bilan ko‘makchi birlikning qo‘shilishi asosida hosil bo‘lgan va qahramonning ruhiy holati, emotsional kechinmasini ifodalovchi remarkalar turidir. Bunday remarkalar odatda ravish, ot, sifatdosh yoki ravishdosh shakllarining *bilan, uchun, kabi, sababli* kabi ko‘makchilar bilan birikishi orqali hosil bo‘lib, harakatning tarzini, sababini, maqsadini aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Masalan:

Yotoq bo‘lmadan ko‘zlari qizargan Xonim chiqib keladi. Sardor bilan Luiza ham ko‘rinadi.

Xonim. Ha, jonim, tinchlikmi? Nima bo‘ldi?

Oq kaptar (vahima bilan). Eshitmadinglarmi? Voy, dahshat, dahshat! Amerika portlabdi! Portillab ketibdi, mamul!

(Erkin A‘zam. “Jannat o‘zi qaydadir?”)

b) birikma bilan ifodalangan murakkab ichki remarkalar – dramatik matnda personaj replikasi tarkibida joylashib, ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, odatda sifat + ot, sifat + fe‘l, ravish + fe‘l qolipidagi birikmalar shaklida keladigan va qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmasi hamda nutq jarayonidagi hissiy munosabatini ifodalovchi remarka turidir. Bunday remarkalar birgina leksik birlik bilan cheklanmay, balki so‘z birikmasi orqali kengaygan sintaktik tuzilma hosil qiladi, natijada, personaj holati yanada aniq va batafsil ifodalanadi. Masalan:

Matmusa. Endi buning ahamiyati yo‘q. Chunki shu soatdan sizning ustozlik, mening shogirdlik muhlatim tugadi. Biz roppa-rosa bir yilga kelishgan edik.

Mahmudiy (zo‘raki kulib). Durust, durust. Hazilga ham chakana emassiz. O‘ylaymanki, bugungi imtihondan siz a‘lo o‘tasiz. Ketdik. Vaqt o‘tmasin.

(Erkin A‘zam. “Jannat o‘zi qaydadir?”)

c) sodda gap bilan ifodalangan murakkab ichki remarka – dramatik matnda personaj replikasi tarkibida yoki unga bevosita yondosh holda kelib, bir predikativ markazga ega bo‘lgan mustaqil sodda gap shaklida tuzilgan va qahramonning ichki holati, ruhiy kechinmasini to‘liq predikativ birlik orqali ifodalovchi remarka turidir. Masalan:

Qulmat. Yo tavba, bu yerda har xil gaplar gapirishib, siz haqingizda... Tinchmisiz ish qilib? Ishlar bilan charchamaygina... (Nafisa uning yelkasiga bosh qo‘yadi) Iye, iye, Navisaxon, shunday kundayam yig‘laydimi odam... Oltmish yosh-a, oltmish yosh... aytishga oson, xo‘pmi? To‘y-da, a, dada?..

Berilgan dramatik parcha tarkibidagi *Nafisa uning yelkasiga bosh qo‘yadi* shaklidagi muallif izohi sodda gap bilan ifodalangan murakkab ichki remarka turiga mansub bo‘lib, u bir predikativ markazga ega bo‘lgan mustaqil sodda gap shaklida tuzilgan sintaktik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

d) qo'shma gap bilan ifodalangan murakkab ichki remarka – bu tarkiban ikki yoki undan ortiq predikativ birlikdan tashkil topgan, dramatik matnda personaj nutqi ichida joylashib, bir necha harakat, holat yoki hissiy o'zgarishni ketma-ket tarzda ifodalovchi remarka turidir. Bunday remarkalar grammatik jihatdan qo'shma gap shaklida shakllanib, bog'langan yoki ergash gapli konstruksiyalar bilan ifodalanadi. Masalan:

Xonim. Boshingga urasanmi? U yoqda negrlar xizmat qiladi-ku!

Klara. Oyi! E-e!.. (U o'rnidan turib ketmoqchi bo'ladi-yu, to'xtab qoladi.) Iye, Luizami? O'zbekcha gapiryapti... Qiziq!

(Erkin A'zam. "Jannat o'zi qaydadir?")

Keltirilgan parchaning kompozitsion tarkibidagi "U o'rnidan turib ketmoqchi bo'ladi-yu, to'xtab qoladi" ichki remarkasi personaj nutqidan keyin yuzaga kelgan ruhiy holatning tashqi ifodasini tana-harakat ishoralari orqali ko'rsatuvchi muhim semantik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'rinadiki, ichki remarkaning aynan murakkab remarka tarzida berilishi personaj nutqining semantik imkoniyatini kengaytirib, tashqi diologik muloqot bilan ichki ruhiy jarayon o'rtasida mantiqiy bog'lanishni ta'minlaydi. Natijada, remarka dramatik matnning umumiy mazmuniy qatlamini boyituvchi, personajning ruhiy holatini noverbal tarzda ifodalovchi hamda sahnaviy taranglikni shakllantiruvchi muhim tarkibiy birlik sifatida baholanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Манковский А. В. Авторская ремарка в драматургии // Вестник филологических наук. 2010. – № 3.
2. Suchy P.A. The Stage Direction as Utterance // Journal of Dramatic Theory and Criticism. 1995. – Vol. 9, No. 2.
3. Pellatt V. Stage Directions as Endotext: Psychological and Socio-Pragmatic Dimensions // Language and Literature. 2023. – Vol. 32, No. 1.